



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILA VA XOTIN-QIZLAR
QO'MITASI



“Yangi O‘zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o‘rni” mavzusidagi respublika respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari



BUXORO-2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Yangi O‘zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va
innovatsion rivojlanish jarayonidagi o‘rni”
mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2024 yil 15 fevral

BUXORO-2024

BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 22-dekabr 70-sessiyasida 11-fevral-“Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” sifatida e’lon qilingan bo’lib, ushbu sana mamlakatimizda keng nishonlanib kelinmoqda. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2024-yil 19-yanvar kuni o’tkazilgan yig’ilishi 1-sonli bayonining “Ilmli ayol-jamiyat ko’zgusi” mavzusida ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy hamda xotin-qizlarning ilmiy salohiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar haftaligini tashkil qilish hamda o’tkazish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi doirasida Buxoro davlat universitetida “Yangi O’zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o’rni” mavzusidagi respublika konferensiyasi o’tkazilmoqda. Konferensiyaning maqsadi ilm va fan taraqqiyotida olim ayollarning tutgan o’rni, O’zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim yo’nalishlari, Yangi O’zbekiston davlat boshqaruvida ayollarning o’rni hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi.

Taqrizchilar:

Sh.Sh. Olimov, pedagogika fanlari doktori, professor

B.R. Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

F.B. Ibragimova, A.A. Huseynova, O.M. Musurmanova, H.T. Artikova,

Z.N. To’yeva, D.B. Axmedova, M.D. Pardayeva, Sh.X. Samiyeva

Maqolalarni to’plovchi va nashrga tayyorlovchi “Pedagogika” kafedrasi
doktoranti Ruziyeva Shoxida Fatilloevna

YANGI O‘ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING O‘RNI

Sh.Sh.Nizomova- Buxoro davlat universiteti

Sport faoliyati va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti

f.f.f.d(PhD)

Yurtimizda ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko’rsatish xalqimizga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma’noda O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy- ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishlari hamda sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog‘lom farzand tug‘ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e’tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e’tibor qaratmoqda. Ma’lumki, millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Mamlakatimizda yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini

ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda mustahkam qonuniy asoslar yaratildi. Davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar, Oliy Majlis yuqori palatasi tomonidan tasdiqlangan 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining amaliyotga samarali tatbiq etib kelinmoqda. Davlat xizmati gender yondashuvi nuqtai nazaridan, ma'lum bir ijtimoiy-kasbiy muhitga ega bo'lgan aniq ierarxik tizim bo'lib, unda erkaklar va ayollar – davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini shakllantirish, shakllantirish va takomillashtirish, ularning maqom-rol, qadriyatga yo'naltirilganligi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Shu bilan birga Zamonaviy jamiyatni demokratlashtirish ayollarning mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok etishini taqozo etmoqda. Bu borada ularning imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Natijada, so'nggi yillarda mamlakatimizda qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortib, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalarda 46 foizga, oliy ta'limda 48 foizga yetdi.

Insoniyat taraqqiyoti davomida ayolga Islom dinidek katta e'tibor bergan birorta din yoki tamaddunni ko'rgan emas. Islom dini ayol haqida so'z yuritarkan, uni oliy maqom va yuksak ehtirom egasi deya tasvirlaydi. Islomda ayol kishi haq-huquqlari ta'minlangan va burch-vazifalari belgilab berilgan to'laqonli shaxs hisoblanadi. Islom insoniyatga jismoniy tuzulish, tabiat, his-tuyg'u, orzu-umid, salomatlik, ehtiyoj va zaruratlar borasida bir butun mukammal inson sifatida qaraydi. Qur'oni karimning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatida ayol so'zining ishlatilishi va suralardan biri aynan "Niso" ya'ni "Ayollar" deb nomlanishi va

unda ayolning mavqei, uning hayotdagi o‘rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi ayollarga bo‘lgan e‘tiborning yorqin misolidir.

Muqaddas islom dinimizda onaga yaxshilik qilish borasida juda ko‘p buyruqlar va onani dilini og‘ritmaslik haqida ko‘pgina qaytariqlar mavjuddir. Birgina misol keltiramiz. Alloh, taolo “Isro” surasining 23-oyatida marhamat qilib aytadi: “Robbingiz faqat Uning O‘zigagina ibodat qilishingizni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga “uff” dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so‘z ayt!” Bu jumlaning “uf” so‘ziga bog‘liq ikki xil ma‘nosi bor. Birinchi ma‘nosi-ota-onaga yomon so‘z aytib, behurmat qilma, degani bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi-ota-onang oldida “uf” dema, ular, bolam og‘ip holga tushibdi, deb ozorlanadilar, deganidir.

Ota-onangga hech bir ozorni ravo ko‘rma! Qanday yaxshi so‘z bo‘lsa, o‘shani ota-onangga ravo ko‘r!

Hadisi shariflarda ayollar xususida shunday keltiriladi: Rasululloh sallollohu alayhi vasallam sahobalardan biriga aytadilar: “Onangni lozim tut, Albatta jannat uning qadamlari ostidadir”.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida, bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari uchun taalluqli dolzarb tashabbuslarni ilgari surganligi nafaqat yurtimizda balki, xalqaro darajadagi ekspertlar tomonidan ham alohida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan gender tengligi va xotin-qizlarga e‘tibor masalasiga alohida urg‘u berilgani mamlakatimizda keyingi to‘rt yilda bu borada olib borilayotgan ishlarni dunyo ahliga namoyish etdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yaxshi bilamiz, mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni va ta‘sirini oshirish so‘nggi to‘rt yilda barcha davlat dasturlarining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilanmoqda. Bu borada O‘zbekiston va BMTning maqsadlari ham mushtarak. Ya‘ni gender tengligi, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlarining doimo ajralmas va eng asosiy tamoyillaridan biridir.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish ham “Qayerdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo‘lsa, o‘sha joyda iqtisodiyot o‘smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda”, deya bejiz ta’kidlagani yo‘q.

Prezidentimiz O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetgani, mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlari soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarilganligini alohida g‘urur bilan ta’kidlab o‘tdilar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ayollarning Yangi O‘zbekistonimizda o‘zbek ayollarining ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o‘rni va mavqeyi oshib erkaklar bilan barcha sohalarda faol ishlar olib bormoqdalar.

РОЛЬ УЧЕНЫХ В ПРИВЛЕЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ В НАУКУ

Бекназарова Саида Сафибуллаевна-

Доктор технических наук, профессор

Ташкентский университет информационных

технологий имени М.Хоразмий, Ташкент,

Узбекистан, saida.beknazarova@gmail.com

Роль ученых в культурном воспитании молодежи является одной из важнейших и ответственных. В современном обществе, где культура и образование играют ключевую роль в формировании личности и развитии общества, ученые имеют возможность влиять на молодежь и воспитывать ее в соответствии с высокими культурными и нравственными ценностями.

Ученые, как носители знаний и опыта, могут привлечь внимание молодежи к культурным ценностям, развить ее эстетический вкус и критическое мышление. Они могут стать наставниками и вдохновителями,

2-SHO'BA: O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI	
<i>SHAXNOZ XIKMATOVNA SAMIYEVA</i> O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI	49
<i>XADIYEVA GULBAHOR DJUMAYEVNA</i> YURT TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY ROLI.	53
<i>AMONOVA NARGIZA MUXTAROVNA</i> YANGI O'ZBEKISTONDA OLIMA AYOLLARGA JAMIYATDAGI IMKONIYATLAR.	57
3-SHO'BA YANGI O'ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING O'RNI	
<i>XУСЕЙНОВА АБИРА АМАНОВНА</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ БОРАСИДАГИ ИСЛОХОТЛАР ҲАҚИДА	62
<i>ARTIQOVA HAFIZA TO'YMURODOVNA</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ILM-FAN TARAQQIYOTI VA INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONIDAGI O'RNI	67
<i>SAMIYEVA SHAXNOZ XIKMATOVNA, SHODMONOVA MIJGONA SALIMOVNA</i> O'ZBEK AYOLLARINING IMIDJINI YARATISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	72
<i>SH.SH.NIZOMOVA</i> YANGI O'ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING O'RNI	76
<i>БЕКХАЗАРОВА САИДА САФИБУЛЛАЕВНА</i> РОЛЬ УЧЕНЫХ В ПРИВЛЕЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ В НАУКУ	79
<i>RUZIYEVA SHOXIDA FATILLOYEVNA</i> GENDER BOSHQARUVDA АКАДЕМИК МОБИЛЛИКНИНГ ZAMONAVIY YO 'NALISHLARI	83
<i>M.B. SHARIPOVA</i> AYOL — JAMIYAT GULTOJI, BORLIQ KO'ZGUSI, MILLAT TARBIYACHISI	88
<i>NIYOZOVA SITORA DAVRONOVNA</i> O'ZBEK AYOLI-O'TMISH NAFOSAT, KELAJAK RAMZI	92